

Toshkentda qaytganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalalari bo'yicha Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ekspertlar Kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tadi



BIRINCHI YIG'ILISH:
Qaytganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalalari bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy ekspertlar Kengashi

2024-YIL 14-MAY | TOSHKENT

Toshkent/Nyu-York/Vena, 2024-yil 10-may. Joriy yil 14-may kuni Toshkentda qurolli mojarozonalaridan qaytganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalalari bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy ekspertlar Kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tadi.

Mintaqaviy ekspertlar Kengashi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 3-4 mart kunlari Toshkentda tashkil etilgan yuqori darajadagi "BMT global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Qo'shma harakatlar rejasi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqaviy hamkorligi" xalqaro konferensiyasida ilgari surilgan va xalqaro sheriklar tomonidan keng ko'lamda qo'llab-quvvatlanayotgan tashabbusi doirasida tashkil etilmoqda.

Anjuman O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI), O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va qashshoqlikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Oila va ayollar masalalari qo'mitasi, shuningdek BMT Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz (MOPDMM), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT)ning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi hamkorligida tashkil etildi.

Mintaqaviy ekspertlar Kengashining Toshkentdagi birinchi yig'ilishida Markaziy Osiyo davlatlari, xalqaro tashkilotlar - BMT va YEXHTning yuqori martabali mansabdor shaxslari, shuningdek qaytganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish, xususan jinoiy harakatlar sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish sohasidagi mutaxassislar ishtirok etadi.

Konferensiyaning ochilish marosimida BMT Bosh kotibi o'rinbosari -Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi rahbari Vladimir Voronkov, Bosh kotibning Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, MOPDMM rahbari Kaxa Imnadze, BMT Xavfsizlik Kengashi Aksilterror qo'mitasi Ijroiya direktorati rahbari vazifasini bajaruvchi Veysun Chen, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston delegatsiyalari rahbarlari

nutq so'zlashi kutilyapti.

Tadbirda ko'plab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, jumladan MDH Aksilterror markazi, SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi, OHICHK Kotibiyati, IHT Parlamentlararo Ittifoqi, KXSHT va BMT tuzilmalari, xususan Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi, Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi, Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasining yuqori darajali vakillari ishtiroki rejalashtirilgan.

Konferensiya qaytganlarni rehabilitatsiya va reintegratsiya qilish hamda mintaqadagi davlatlar hamkorligini institutsionallashtirish sohasida Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro tajriba almashishi uchun o'ziga xos maydonga aylanadi, hamda Markaziy Osiyo davlatlarining yuksak darajadagi birlashuvining va mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun mas'uliyatni birgalikda zimmasiga olishga tayyorligini yana bir bor namoyish etadi.

Tadbir doirasida "Repatriantlarni rehabilitatsiya va reintegratsiya qilishga davlat va umumiy ijtimoiy yondashuvning ahamiyati", "Mahalliy jamoalar va jamoat tashkilotlarining sohadagi o'rni" kabi muhim mavzularda seksiyalar tashkil etiladi.